

Jamiyatning buguni va kelajagi, uning madaniy-ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarga bog'liq. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda o'qituvchilar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklatilgan, Yangi O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yosh avlod ishonib topshirilgan. Shuning uchun har bir o'qituvchi bu katta ishonchni o'zining pok vijdoni va mas'uliyat hissi bilan oqlashi zarurdir. Buning uchun u tinimsiz izlanishi, jamiyatimizda sodir bo'layotgan yangiliklardan xabardor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyarni o'z faoliyatida doimiy qo'llab borishi kerak.

O'sib kelayotgan Vatanimizning kelajak vorislarini chinakam vatanparvar va xalqqa fidoyi etib tarbiyalash, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda ona tili va adabiyot fanlarining o'rni beqiyos. Bu fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan muntazam foydalanish esa ona tili faniga mehr-muhabbat hissini oshiradi va millatimiz ma'naviy beshigi—adabiyot sarchashmalariga qiziqish uyg'otadi. Murakkab mavzularni oson o'zlashtirishga erishiladi.

Zero, ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda tanlangan 100 innovatsion texnologiyalar faoliyatingizda samara berishiga ishonamiz.

Djakbarova Mahliyo Ibraximjonovna

**NamDPI Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari
kafedrasi o'qituvchisi, PhD**

“Mozaika” metodi

Mozaika (fransuzcha “masaique” — “muzalarga bag‘ishlangan”) — bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yogoch, marmar, metall va boshqalar) bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli (monumental) bezak san’atining asosiy turlaridan. Asosan, binolar, amaliy san’at asarlarini bezashda, dastgoh. san’ati asarlari yaratishda qo‘llanadi. Mozaika yig‘ishning 2 xil usuli farqlanadi: naqsh (tasvir) mustahkamlovchi modda (ohak, sement, mum va boshqalar) surtilib bezatilayotgan yuzaga mayda bo‘laklardan to‘g‘ridan to‘g‘ri terib hosil qilinadi; teskari terishda rasmi qog‘oz yoki matoga bo‘laklar o‘ng tomoni bilan yopishtiriladi, so‘ng teskari tomoniga mustahkamlovchi modda surtilib, bezatilayotgan yuz (devor yoki shift) ga biriktiriladi. Mozaikaning alohida turi — inkrustatsiya.

Turli ranglarda bo‘yalgan doiralardan iborat eng qadimiy mozaika miloddan avvalgi uch ming yillikka mansub. Mozaika Qadimgi Sharq mamlakatlarida, antik davr va o‘rta asrlarda Vizantiya, Italiya, Gruziya, Qadimgi Rusda rivojlangan. G‘arbiy Yevropa san’atida bezak mozaikalar keng tarqalgan. Islom mamlakatlarida XIII-XIV asrlarda koshinli mozaikalar rivojlangan, qoliplar asosida ishlangan bo‘laklar yig‘ilib murakkab naqsh (tasvir)lar hosil qilingan. XIV-XV asrlarda Samarqand va Buxorodagi binolar peshtoqiga ishlangan mozaikalar jozibadorligi bilan diqqatni tortadi.

XVIII asrda Yevropada (jumladan, Rossiyada M.Lomonosov tomonidan) mozaika qayta tiklangan (dastgoh portretlar va batal kompozitsiyalari yaratilgan). "Modern" va milliy romantik oqim ustalari mayolika (koshin)li mozaika usulidan foydalanganlar (ispan A. Gaudi, rus V. Vasnetsov, M. Vrubel va boshqalar). Yirik bo‘laklardan tuzilgan mozaikada ko‘zga tashlanuvchi mahalliy ranglar uyg‘unlashtirib tuzilgan kompozitsiyalar ko‘p uchraydi (R. Guttuzo, D. Rivera va boshqalar). XX asrning 30-yillaridan san’atlar sintezi masalalariga qiziqish ortdi, Mozaika ham rivojlandi. O‘zbekistonda 60-yillardan (ayniqsa, Toshkent zilzilasidan keyin) mozaika keng tarqaldi, jamoat va turar joy binolari bezagida


keng qo‘llanilmoqda (Toshkentdagi Amaliy san‘at muzeyi, "Paxtakor" metro bekati bezaklari va boshqalar). Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan qadimiy koshinkorlik an‘analari keng qo‘llanilgan holda jamoat binolari, me‘moriy obidalar ajoyib mozaika namunalari bilan bezatilmoqda: Imom Buxoriy yodgorlik majmui, Oliy Majlis binosi, O‘zbekiston konservatoriyasi binosi va boshqa.

Ona tili va adabiyot darslarida “Mozaika” metodidan quyidagi usullarda foydalanish mumkin:

1-usul. Kubik shaklidagi tasvirlarni yig‘ish orqali muayyan asar mazmuniga mos yaxlit tasvir hosil qilish.




Masalan: bolalar o‘yinchog‘i bo‘lgan kubiklardan 9 ta hamda muayyan asarga oid 6 ta tasvir yaxlit holda olinadi. Kubik tomonlarining o‘lchamiga mos ravishda har bir tasvir 9 bo‘lakka bir xil o‘lchamda bo‘linadi va kubik tomonlariga yopishtiriladi. Oldindan tayyorlangan bu kubiklarni terish orqali o‘quvchilarda chaqqonlik, muammoni yechishga intilish kabi ko‘nikmalar shakllantirilsa, hosil bo‘lgan tasvir asosida asar syujetini so‘zlab berish topshirig‘i orqali ularning nutqi rivojlanadi, asar g‘oyasini tasavvurda jonlantirish va mavzuni yanada mustahkamlashga erishiladi. 6-sinf adabiyot darsligida O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan “Eng og‘ir gunoh” hikoyasi berilgan bo‘lib, quyidagi rasmlar tanlab olindi. Har bir rasm mozaika usuli asosida tiklanganda o‘quvchilar rasm asosida hikoyaning rasmga oid syujetini so‘zlab berishi lozim.



1-rasm

Ona. O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasini onasiga bag‘ishlab yozgan. Unda onalarga xos barcha fazilatlar kichik hikoyalar orqali tasvirlangan. Adib har safar yangi asar yozganida uni birinchi bo‘lib onasiga ko‘rsatgan...



2-rasm

Kuzda bolalar yong‘oqlarni xomligicha uzishib, toshga ishqalab silliq qilishadi. Uchi bilan dumini yaxshilab ishqalab, yog‘lashadi va zildek og‘ir yong‘oqdan soqqa sifatida foydalanishadi. Uning kichkina bo‘lishi, ayniqsa, muhim. Bu “Soqqaquvar” o‘yini deyiladi.



3-rasm

Qotgan nonlarning uvol bo‘lmasligi uchun kelida non yaxshilab tuyiladi va un holatiga keltiriladi. Unga turli xil mag‘iz yoki sariyog‘dan aralshtirish mumkin. Ocharchilik zamonlarida kishilar tolqondan asosiy ozuqa sifatida foydalanishgan. Nonni uvol qilishmagan.



4-rasm

Hikoyada ona bilmasdan soqqa yong‘og‘ini ham chaqib tolqonga qo‘shib yuboradi. Bola onasiga zarda qilib tolqonni turtib to‘kib yuboradi. Ona bu og‘ir gunohligini bolasiga tushuntiradi. Dadasi kelganda bolaning bu aybini yashiradi.



5-rasm

Kuz kirganini qishloq bolasining qo‘lidan bilsa bo‘ladi. Yong‘oq hali “paqqa” bo‘lib ajralmasdan turib, daraxtga tarmashib ketamiz. Xom yong‘oqning po‘stini tozalash oson emas. Shuningdek, yong‘oq to‘yimli meva. Aqlni ham rivojlantiradi.




6-rasm

Lavlagi-poliz ekini. Shifobaxsh xususiyati ko‘p. Dadasi kelganda bolaning onasi oshxonadan bug‘i chiqib turgan bir lagan lavlagi ko‘tarib chiqadi. Lavlagi shirin narsa-yu, har kuni yegandan keyin jonga tegadi. Demak, odamlar lavlagi, tolqon yeb ocharchilikdan o‘zlarini saqlagan.

2-usul. Ona tili darsida A4 formatdagi qog‘ozga Vatan, tabiat yoki shunga o‘xshash bolani tarbiyalashga, fikrlashga undaydigan rasm tasviri tushiriladi. Qog‘ozning bir tomoni oq bo‘lib, unga hikmatli so‘z, maqol, aforizm yoziladi. O‘quvchilarga rasm turli xil parchalarga bo‘lingan holda beriladi va tasvirni tiklash

topshirig‘i beriladi. Bu jarayonda o‘quvchi muammoni yechish, aniqlikni topish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Tiklangan tasvir skotch bilan birlashtirilgach, qog‘oz orqasidagi jumla ham tiklanadi. Bu jumla orqali grammatik topshiriqlar beriladi. Rasm mazmuniga mos fikr tanlash, fikrda grammatik topshiriq mazmunini ochib beruvchi til birliklarining bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Quyida “Mozaika” metodining 2-usuli uchun til fanining turli sohasiga oid topshiriqlar namuna sifatida keltirilgan.

Fonetika bo‘limi uchun:



Odamlarning ong-u tafakkuri, dunyoqarashini o‘zgartirish, ma’naviy saviyasini yuksaltirish vositasi—bu kitob. Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning kelajagi yo‘q.

Sh.Mirziyoyev

Topshiriq: Qo‘sh undoshli so‘zlardagi jarangsiz undoshlarni ayting.

Yechim: “Tafakkur” so‘zidagi jarangsiz undoshlar: t,k;

“Taraqqiyot” so‘zidagi jarangsiz undoshlar: t,q.